

**“UzGasTrade” AJda 2025-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT**

**Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani
to‘g‘risida umumiy axborot**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yil kungi PQ-240-sonli “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf yetish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qaroriga asosan havf-xatarlarni baholash tartiblari amalga oshirildi va e-antikor.uz platformasining 2 moduliga ma’lumotlar joylashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-sonli qonunning ijrosini ta’minlash maqsadida jamiyatning barcha xodimlaridan manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalari olinib taxlil qilindi. Taxlillar natijasida jamiyat xodimlari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanmadi.

“UzGasTrade” AJ komplaens-nazorat bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan Qaror va Farmonlar, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tomonidan yuborilgan ko‘rsatmalar va ichki idoraviy normativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

“UzGasTrade” AJning 2025-yil 11-avgustdagi “Hududiy bo‘linmalar xodimlari ishtirokida o‘quv-seminar trening tashkil etishga oid” 17-um-son buyrug‘iga asosan 13-16-avgust kunlari “O‘quv-seminar trening” dasturiga muvofiq o‘quv mashg‘ulotlar tashkil etildi.

Jamiyatning markaziy va hududiy bo‘linmalaridagi vakillar o‘rtasida vertikal tizimda ishlash samaradorligini yanada oshirish, faoliyat bilan bog‘liq me‘yoriy hujjatlar bilan ishlash bo‘yicha tushunchalar berish hamda tizim faoliyatini yanada yaxshilash, shu bilan birga korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ko‘rib chiqildi.

Shuningdek jamiyat komplayens-nazortai bo‘limining ish rejasiga asosan 28-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi xuzuridagi komplayens-nazorati bo‘limi xodimi “Korrupsiyaga qarshi kurashish va Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risi”da mavzusida jamiyat xodimlari ishtirokida iqtisodiy o‘qish o‘tkazildi.

9 dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan mamlakatimizda o'tkazilayotgan "Aksilkorrupsiya oyligi" doirasida O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi prokurori, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori T.Safarov ishtirokida iqtisodiy o'qish o'tkazildi.

Siyosat va tartib-taomillar

"UzGasTade" AJning 2025-yil 29-sentyabrdagi 23-UM-sonli buyrug'iga asosan "Sovg'alarni boshqarish, ishbilarmonlik tadbirlarini tashkil etish va ularda ishtirok etish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish Siyosati" ichki xujjat ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Mazkur Siyosat jamiyat xodimlari tomonidan mustaqil o'rganishlarini ta'minlash maqsadida mazkur hujjatlar Jamiyatning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan.

Xavf-xatarlarni baholash¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yil kungi PQ-240-sonli "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf yetish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qaroriga asosan xavf-xatarlarni baholash tartiblari amalga oshirildi va e-antikor.uz platformasining 2 moduliga ma'lumotlar joylashtirid va "UzGasTrade" aksiyadorlik jamiyatining faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi va "UzGasTrade" aksiyadorlik jamiyati, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi jamiyat raisi tomonidan tasdiqlab xavf-xatarlarni bartaraf etish yuzasidan tegishliligi bo'yicha bo'limlarga topshirilib va xar bir bo'lim tomonidan dasturda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni to'liq amalga oshirildi.

Tasdiqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasida qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi xar bir bo'lim past darajada.

Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar **Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi 2024-yil 5-iyundagi O'RQ-931-sonli qonunning ijrosini ta'minlash maqsadida jamiyatning barcha xodimlaridan manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalari olinib taxlil qilindi. Taxlillar natijasida jamiyat xodimlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi aniqlanmadi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarini Tashkilot shartnomalariga kiritish

Jamiyat tomonidan 2025 yil davomida tuzilgan barcha xo'jalik shartnomalariga Korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritilgan.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida jamiyat tomonidan tender savdolari amalga oshirilmagan, moddiy ta'minot bo'limi tomonidan 190 ta shartnoma rasmiylashtirilgan shundan 68 ta shartnoma PQ-3953-qarori va O'RQ-684-qonungaga muvofiq to'g'ridan to'g'ri va qolgan 120 ta shartnoma Xarid.uz platformasi orqali hamda 2 ta tendor savdolari amalga oshirilib shartnomalar rasmiylashtirilgan.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Hisobot davrida ishga yangi qabul qilingan 5 nafar xodimdan va yuqori lavozimga tayinlangan 4 nafar xodimlardan manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalari olinib tahlil qilindi.

Yangi ishga qabul qilingan 5 nafar xodimning hujjatlari to'liq o'rganib chiqildi va ijobiy xulosa berilib ishga qabul qilindi.

Ta'lim va kommunikatsiya

Jamiyatning komplaens-nazorat bo'lim xodimlari ISO 37001:2025 asosidagi poraxo'rlikka qarshi boshqaruv tizimining menejeri/ichki auditori yo'nalishi bo'yicha malaka oshirildi va "CERT Academy" tashkiloti tomonidan sertifikat taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va BMT taraqqiyot dasturining Yevropa itifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan "O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi milliy ekotizimni mustaxkamlash" loyixasi dasturida joriy yiling 20-21-avgust kunlari "Davlat organlari va tashkilotlarda korrupsiyaning oldini olish va "komplayens-nazorat" tizimi samaradorligini oshirish" mavzusida o'quv seminarini muvaffaqiyatli tamomlagani uchun jamiyatniing komplayen-nazorati bo'lim boshlig'i S.Mirzamoydinovga agentlik tomonidan sertifikat taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-228-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, **93 nafar** jamiyat xodimlarini "**Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish**" mavzusida ish joyidan ajralmagan holda masofaviy tarzda "**Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi elektron platformasi**"da maxsus o'quv kursida malaka oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli qonunning 16-moddasi hamda ISO 37001:2016 xalqaro standartining 5-bandida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, ularning

o'rinbosarlari OAV va tadbirlardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'yicha chiqishlar Jamiyatning boshqaruv raisi tomonidan "Inson va qonun" ro'znomasining 2025 yil 1-iyuldagi 26-sonida "Korrupsiya-xalq ishonchiga xiyonat" mavzusida hamda ro'zmaning 3-dekabrdagi 51-sonida "Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yamaylik" mavzusida maqola chop etildi.

Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

2025 yil davrida jamiyat xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari va boshqa manbalardan xabarlar kelib tushmagan.

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Qonunchilik hujjatlarida keltirilgan tartibda ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni doimiy ravishda rasmiy-veb sahifada joylashtirilib borilishini ta'minlash.

Vakant lavozimlarga ochiq tanlovlarni elektron shaklda o'tkazish hamda tanlovlarni onlayn rejimda ovozli videotranslyatsiya qilish, shuningdek, o'tkazilgan tanlov materiallarini rasmiy veb-saytga kiritish, ishga qabul qilishda mavjud cheklovlarga (jumladan, muqaddam sudlanganlik holatiga) rioya qilinishi yuzasidan qat'iy nazorat o'rnatish.

O'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlarni aniqlash va qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish, xodimlar soni va ularning ro'yxatini shakllantirish. Manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralari ko'rish.


Yaqin qarindoshlar bevosita bo'ysunuvda yoki nazorat yo'nalishida ishlayotgan holatlarni aniqlash va qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish hamda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralari ko'rish.

Xodimlarning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish, davlat xaridlari jarayonidagi affillan-ganlik holatlarini aniqlash va ushbu holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish hamda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralari ko'rish.

Xodimlar ish stolidan eslatma sifatida foydalanishi uchun korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar va bunday vaziyatlarda ko'riladigan choralar bo'yicha targ'ibot materiallarini ishlab chiqish, tarqatish.

Yoshlar o'rtasida korrupsiyaning oldini olishga doir tashkiliy va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Komplaens-nazorat
/bo'limi boshlig'i




S.Mirzamoydinov

**Korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan
chora-tadbirlarning ijrosi haqida
HISOBOT**

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Amalga oshirilgan choralar
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.06.2021 yilgi PF-6247-sonli va 14.06.2022 yilgi PF-154-sonli Farmonlarini ijrosi ta'minlash	01.01.2025 yil	Ma'lumotlar "UzGasTrade" AJning rasmiy veb-saytlariga joylashtirildi.
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yilgi PQ-240-sonli Qarorini ijrosi ta'minlash	01.03.2025 yil	Ma'lumotlar "Ye-antikor.uz" platformasiga joylashtirildi.
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2022 yilgi PQ-81-sonli Qarorini ijrosi ta'minlash	10.03.2025 yil	Ma'lumotlar "Ye-antikor.uz" platformasiga joylashtirildi.

Komplayens nazorat
/bo'limi boshlig'i



S.Mirzamoydinov